

## YUNON VA HIND MIFOLOGIYASIDAGI O'XSHASH JIHATLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Hazratqulova Shohsanam Sharofiddinovna

ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs

E-mail: [sharofiddinovnashohsanam@gmail.com](mailto:sharofiddinovnashohsanam@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ikki buyuk madaniyat sohibi bo'lgan yunon va Hind mifologiyasida uchrovchi Xudolar, joy nomlari va turli afsonaviy mavjudotlarning o'xshash jihatlariga e'tibor qaratildi va bu o'xshashlikning sabablari haqidagi ayrim mulohazalar bildirildi

**Kalit so'zlar:** mif, mifologiya, sivilizatsiya, xudolar, yarim xudolar, joy nomlari, afsonaviy mavjudotlar.

### SOME REMARKS ON SIMILAR ASPECTS IN GREEK AND INDIAN MYTHOLOGY

#### ABSTRACT

This article focuses on the similarities of Gods, place names and various mythical creatures found in Greek and Indian mythology, the owners of two great cultures, and some comments about the reasons for this similarity are given.

**Keywords:** myth, mythology, civilization, gods, demigods, place names, mythical creatures

Mif-dinning buzilgan shakli bo'lib, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi davrlarida paydo bo'lgan. U insoniyatning olam haqidagi o'sha davrlardagi tasavvurlarini nafaqat aks ettiradi, balki aniq obrazlar vositasida bo'rttiruvchi e'tiqodiy qarashlarni, to'qimalarni o'zida mujassamlashtirib, koinotning yaratilishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, tabiat hodisalarining sabablari va mohiyati afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi. Dastlabki miflar, mifologik qarashlarning paydo bo'lishida insoniyat svilizatsiyasi bilan bog'liqlik inobatga olingan holda, mifologiyaning vatani Yunoniston deya e'tirof etiladi. Lekin buni aynan to'g'ri fikr deya olmaymiz. Chunki qadimgi Misr, O'rta Osiya, qadimgi Hindiston miflari ham yunon miflaridan kam tarixga ega emas. Buni obrazlardagi, makon-

zamonlardagi o‘xshash jihatlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, qadimgi yunon svilizatsiyasi ham, hind vodiysi sivilizatsiya ham juda qadimiy va boy tarixga ega. Ikki xalq mifologiyasida ham shu qadar qadimiylit va anchayin o‘xshashliklar mavjud. Ularning afsonalari, xudolari, turli mifologik mavjudotlaridan tortib makon va zamonlarida ham inkor etib bo‘lmas o‘xshash jihatlarga duch kelamiz. Bir-biridan katta farq qiluvchi ikki madaniyat mifologiyasidagi bu o‘xshashliklar g‘alati, albatta. Yunon mifologiyasi ham, hind mifologiyasi ham politeistik xarakterga ega. Shu sababdan ikki madaniyatda ham bir nechta xudolar va ma’budalar mavjud. Yunon mifologiyasida bosh xudo Zevsdir. U barcha davlarda eng kuchli jangchi, momaqaldiroq va chaqmoq xudosi hisoblanadi. Hind mifologiyasida esa bu xususiyatlar Indrada uchraydi. Ikkala xudoning ham quroli momaqaldiroq. Ikkala madaniyatda ham bu xudolar ko‘pxotinli, hasadgo‘y va ko‘p o‘rinlarda faqat o‘zini o‘ylaydi. Yer osti sultanati xudosi yunon mifologiyasiga ko‘ra Hadesdir. U nihoyatda qattiqqo‘l va sovuqqon. Bu xudoning hind mifologiyasidagi hamkasbi Yamadir. Yama-o‘lim xodosi. Hades ham, Yama ham ruhlar dunyosi-o‘limdan keying hayot uchun javobgardir. Xudolar odamlar balandda yashashadi. Demak, o‘z navbatida ularga yerda bo‘layotgan hodisalarni yetkazib turuvchu xudolar ham kerak. Bu vazifani yunon mifologiyasida Germes, hindlarda esa Narada bajaradi. Germesning qanotli poyabzali bor. Narada esa istalgan joyda erkin teleportatsiya qila olish qobiliyatiga ega. Yunon va hind afsonalarida ikki xudo ham ayyor va zukko sifatida tasvirlangan. Shuningdek, ikkalasi ham o‘lim dunyosiga erkin sayohat qila oladi. Eros- sevgi xodosi, yunonlarda go‘zallik va sevgi ma’budasini Afroditaning o‘g‘li. Kamadev- lord Vishnu va ma’buda Lakshmining o‘gli. Hinlarda istaklar va sevgi xodosi. Ikkala xudoning ham quroli kamon va o‘qdan iborat. Zevs va Indraning quroli xudolar tomonidan yasalgan edi. Hindlarda Vishvakarma Inrdanining qurolini yasagan bo‘lsa, yunon madaniyatida bu vazifani Gefest ado etgan. Ikkalasi ham qurilish va memorchilik xudolari hisoblanadi.

Yunon mifologiyasida yarim xudolar tushunchasi keng tarqalgan. Ular Xudo yoki ma’buda va o‘lik mavjudotlarning avlodlari ekanligi aytildi. Axilles va Gerkulis yarim xudolar sirasiga kiradi. Bu holat hind mifologiyasida ham mavjud. Mahabharata dostonida tasvirlangan afsonaviy pandavlarning otalari xudolar bo‘lishiga qaramay ular o‘lik onalardan tug‘ilgan edi. Axilles ham Karna ham yarim xudo va mohir jangchilardir. Hind mifologiyasida uchrovchi Karna zirhlangan tanaga ega. Bu uning yengilmasligiga sabab bo‘ladi. Axillesni esa onasi go‘dakligida Stiks daryosiga botirib olganligi sababli tanasining suv tekkan qismini hech qanday qurolda jarohatlab bo‘lmaydi. Bu ikki Xudoning asosiy o‘xshash tomoni ham yengilmaslidadir.

Xudolarning tug‘ilishida ham o‘xshashliklarga duch kelamiz. Afsonalarga ko‘ra Afina va Kali boshqa xudolarning peshonasidan tug‘ilgan. Kali Durganing, Afina esa

Zevsning peshonasidan tug‘iladi. Ikki madaniyat mifologiyasida ham xohishlariga qarshi o‘laroq o‘g‘irlab ketilgan obrazlar mavjud. Yunon mifologiyasidagi Persefon Hades tomonidan o‘g‘irlab ketilgan bo‘lsa, hindlarda Sita Ravana tomonidan o‘g‘irlab ketilgan.

Yunon mifologiyasi afsona va rivoyatlarga boy. Hind mifologiyasi ham undan qolishmaysdi. Agar ikki xalq afsonalariga nazar solsak, ikkala tomonda ham koinot ustidan muqaddas uchlik hukmronlik qilishini ko‘ramiz. Yunonlarda osmon hukmdori-Zevs, yer osti dunyosi hukmdori-Hades, dengiz hukmdori-Poseydon bu uchlikni tashkil qiladi. Hind mifologiyasida esa yaratuvchi-Brahma, himoyachi-Vishnu va vayron qiluvchi-Shiva koinot hukmronlaridir. Bundan tashqari 7 yulduzni bildiruvchi obrazlar ham uchraydi. Bu mif O‘rta Osiyoda ham yeti qaroqchi yulduz shaklida mavjud. Yunonlarda ular Pleiades deb ataluvchi 7 opa-singildan iborat yulduz to‘plami, hindlarda esa quyoshni ham boshqara oluvchi 7 yorqin yulduz-Saptrishi shaklida mavjud.

Yunon eposi Illiada va hind Eposi Ramayana juda ko‘p o‘xshash va farqli jihatlarga ega. Lekin ular orasidan asosiy o‘xshashlik urushning boshlanish sababi va yakunidadir. Ikki dostonda ham urush boshlanishiga ayollar sababchi bo‘ladi. Urush yakuniga ko‘ra ikkala epos ham fojeaviy yakun topadi. Fojeaviy yakun Xudolar hayotida ham uchraydi. Ikki xalq mifologiyasida ham qudratli va yengilmas qahramonlar Axilles va lord Krishnaning tovoniga tekkan o‘q tufayli vafot etishi bunga misol bo‘la oladi.

Yunon mifologiyasida ham, hind mifologiyasida ham ikki dunyoni ajratib turuvchi daryolar haqida gap ketadi. Yunonlarda o‘liklar dunyosini tiriklar olamidan ajratib turuvchi daryo Axilles botirib olingan Stiks daryosi edi. Hindlarda esa Vaitarani daryosi shu vazifani bajaradi. Joy nomlari haqida gap ketar ekan, ikki xalqda ham tog‘lar xudolar uyi, ular yashaydigan joy sifatida tasvirlanadi. Yunonlarda Olim tog‘ida o‘n ikki xudo yashasa, hindlarning Kaylash tog‘ida Shiva va ma’buda Parvati yashardi. Shuningdek, yo‘qolgan shaharlar ikki mifologiyada ham uchraydi. Shahrlarning yo‘qolishi ham bir xil holatda ya’ni urushdan keyin yuz beradi. Yunonlarning Atlantis afsonaviy oroli Afina urushidan keyin okeanga cho‘kib ketgan bo‘lsa, Krishna davrida qurilgan Dvarka shahri uning avlodlari o‘rtasidagi urushdan so‘ng dengizga cho‘kib ketadi.

Xudolar, makonlardagi o‘xshashliklardan tashqari birlashtirib turuvchi xususiyatga ega bo‘lgan mifologik mavjudotlar ham uchraydi. Masalan, yunon mifologiyasida ham, hind mifologiyasida ham do‘zax eshiklarini it qo‘riqlaydi. Minotavr-buqa odam hindlarda ham, yunonlarda ham mavjud. Yunonlarning Minotavri labirintda yashardi va u oxir-oqibat Afina qahramoni tomonidan o‘ldiriladi. Hindlarning buqa odami esa iblis Mahishasura bo‘lib, u ma’buda Durga tomonidan

o‘ldirilgan. Yunon mifologiyasi qahramonlari Dedal va Ikar asirlikdan qochish uchun patlar va mumdan qanot yasab, ozodlikka chiqishadi. Biroq Ikar quyoshga juda yaqin uchgani bois qanotlari erib ketadi va vafot etadi. Shunga o‘xhash afsonaviy qahramonlar hindlarda ham bor. Birodarlar Jatayu va Sampati afsonasi shu haqidadir. Kunlardan bir kun Jatayu o‘z kuchidan kibrilanib quyoshga juda yaqin uchadi. Akasi Sampati qanotlarini yoyib pana qilish orqali ukasini qutqarib qoladi. Lekin bu hodisa tufayli o‘zi butun umr qanotlarsiz yashaydi.

Hind va Yunon mifologiyasi o‘rtasidagi bu kabi o‘xshshliklar ikki xalqning negizi bir ekanligini hamda dastlabki davlarda bitta dinga e’tiqod qilganini ko‘rsatadi. Keyinchalik turli tomonlarga bo‘lgan ko‘chishlar, yangi joyning muhiti, odamlari, tabiati ular o‘rtasidagi ayrim farqli jihatlar paydo bo‘lishiga olib kelgan. Ularning bir hududdan boshqa hududlarga qilgan hijratlari va boshqa guruh odamlarga qorishib ketishi madaniyati va tilining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Lekin asosiy nuqtalar, birlashtiruvchi belgilar saqlanib qolgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. N.A.Kun. Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari.-Toshkent: Yosh gvardiya, 1986.
2. N.A.Kun. Qadimgi yunon afsona va rivoyatlari.- Samarqand: Zarafshon, 2005.
3. E. Темкин. Мифы Индии.- Москва: Наука, 1982.